

"XXI ASRDA INNOVATION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" *Konferensiyasi*



BIZNING YO'NALISHLARIMIZ:

- Aniq fanlar
- Tabiiy fanlar
- Tibbiyot fanlari
- Texnika fanlari
- Iqtisodiyot
- Filologiya fanlari
- Pedagogika fanlari
- Ijtimoiy va gumanitar fanlar
- Psixologiya fanlari
- San'at va madaniyat fanlari
- Jismoniy tarbiya va sport



INDEKSLAYMIZ:



OpenAIRE

zenodo



[HTTP://UNIVERSALPUBLISHINGS.COM](http://UNIVERSALPUBLISHINGS.COM)



+998 88 808 21 07

2-TOM, 1-SON
“AGASTACHE FOENICULUM (PURSH) KUNTZE” DORIVOR
O‘SIMLIGINING INTRODUKSIYA SHAROITIDA BIOEKOLOGIK
XUSUSIYATI

Halimova Shohina Eminjon qizi

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

Jahonda global iqlim o‘zgarishi natijasida turli xil tuproq-iqlim sharoitda tarqalgan dorivor o‘simliklarning morfo-biologik, ekologik, fiziologik, fitokimyoviy xususiyatlarini o‘rganishga va introdusent dorivor o‘simliklarning mahalliy sharoitga moslanishiga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada *Agastache foeniculum (Pursh) Kuntze* kabi istiqbolli dorivor o‘simliklar genofondini yaratish, introduksiya sharoitida istiqbolli o‘simliklarning moslanish xususiyatlarini aniqlash, turli ekologik sharoitlarda yetishtirish bo‘yicha texnologik xaritalarni ishlab chiqish, o‘simliklarning biologik xususiyatlarini ilmiy asoslash, o‘sish va rivojlanishini, fitokimyoviy xususiyatlarini asoslashga katta e’tibor qaratish o‘rinli.

Buxoro shahrida introduksiya qilinayotgan o‘simliklardan biri Lamiaceae oilasidan *Agastache foeniculum (Pursh) Kuntze* hisoblanadi.

Agastache foeniculum (Pursh) Kuntze. – (Люфант анисовый) **Anissimon lofant.** Ko‘p yillik o‘t o‘simlik, balandligi 70-100 sm. Turkum turlari G‘arbiy va Sharqiy Sibirda, O‘rta Osiyoda va Uzoq Sharqda uchraydi. Keyinchalik Janubiy Yevropa mamlakatlarida tarqalgan. AQSh va Rossiyaning janubiy qismida ko‘paytirilmoqda. Tabiiy sharoitda Shimoliy va Markaziy Amerikada o‘sadi. Tibbiyotda dorivor, efir moyli o‘simlik sifatida ishlatiladi. Inson organizmida modda almashish jarayonini normallashtiradi. O‘simlik ko‘p kasalliklarga – ateroskleroz, stenokardiya, prostatit, qon bosimini pasaytirishda, o‘pka shamollashida, gastrit, jigarni davolashda ishlatiladi. Undan tashqari, o‘simlik organizmda qarish jarayonini sekinlashtiradi, immunitetni oshiradi, asabni va jismoniy charchashni yo‘qotadi, ishlash qobiliyatini oshiradi [1; 86-97-b.].

Latent davri (se). O‘simlikning urug‘lari jigarrang, uzunligi 1,5-2 mm, eni 0,7-1,0 mm. 1000 dona urug‘ og‘irligi 1,17-1,20 g. Urug‘ unuvchanligi uchun qulay harorat 25-30°S hisoblanib, urug‘lar 7-8 kundan keyin unib chiqa boshladi, 17 kundan keyin esa 80-84% unib chiqdi (3.5-jadval). Urug‘ unuvchanligi 21 kun davom etdi. Dala sharoitida kuzda ekilganda 40-45% ni tashkil etdi. Urug‘lar o‘z unuvchanligini 2-3 yil yo‘qotmaydi [2; 344-352-b.].

3.5-jadval



2-TOM, 1-SON

Agastache foeniculum urug'larining laboratoriya sharoitida unuvchanligi
(25.01.2023 y.)

Harorat, °C	Kunlar										Jami ungan urug'lar, %	Unish energiyasi, %
	3	5	6	8	12	15	17	18	20	21		
15	2	4	5	7	8	4	2	1	1	1	35	15
20	4	10	16	18	4	2	1	1	-	-	56	34
25	8	18	20	14	9	6	5	-	-	-	80	38
30	10	16	24	20	6	5	3	-	-	-	84	40

Generativ davri (g). Iyun oyining oxirida (20.06) *Agastache foeniculum* ning bo'yi 35-45 sm ga yetib, g'unchasi hosil bo'la boshladi. Barglar soni 14-18 taga ko'paydi, popuk ildizi 15 sm gacha rivojlandi. Daslatbki gullarining 29.06 sanasida kuzatildi. Iyul oyining o'rtalarida (14.07) o'simlik bo'yi 80-100 sm bo'lganda, yalpi gullash jarayoni kuzatildi. Bir tupda 2-10-15 gacha yon novdalar hosil bo'lib, ularning uzunligi 10-20-35 sm ga yetdi. Ulardan boshqoq shaklida savatchalar paydo bo'la boshladi. Boshqoq uzunligi 6-10 sm. Bir tupda 1-12 tagacha boshqoq hosil qilgan. Guli och qo'ng'ir rangda.

Bir boshqodagi gullar soni 300-400 dan ortiq. Har bir boshqoda hozir 10-15 guli ochilgan. Katta barg o'lchami 7-8 x 5-6 sm, o'rta barg o'lchami 4-5 x 3-4 sm, kichik barg o'lchami 2-3 x 1,5-2,0 sm. Barg chekkasi arrasimon. Poyaning o'rta qismidagi barglari katta, pastki va yuqori qismidagi barglari kichik. Barglari qurimagan, yashil holatda. Avgust (17.08) da balandligi 90-110 sm ga yetib, o'simlikning 9-15 tagacha boshog'i gullagan. Sentabr (15.09) oyining o'rtalarida balandligi 110-115 sm ga o'sgan, 16 ta yon novdasi hosil bo'lgan, to'pgullar soni 16-20 ta, ularning uzunligi 9-14 sm gacha o'sgan. Oktabr (10.10.2022) boshlarida balandligi 110-115 sm da qoldi. Ikkinchi va uchinchi tajriba maydonlarida ekilmagan. 25.08-22.09 gacha urug'lari pishgan. *Agastache foeniculum* ning umumiy vegetatsiya davri 180-185 kunni tashkil etdi (3.30-rasm).




2-TOM, 1-SON



3.30-rasm. *Agastache foeniculum* ning generativ davri (14.07.2022 y.).

Agastache foeniculum ning introduksiya sharoitida o'sish va rivojlanishida yillik iqlim omillarining ko'rsatkichlari hamda bevosita ekish muddatlariga bog'liqligi r-Pearson korrelyatsiyasi asosida tahlillar amalga oshirildi (3.31-rasm).



3.31-rasm. *Agastache foeniculum* ning ontogenezida tashqi muhit omillariga korrelyatsiyasi.

Agastache foeniculum ning introduksiya sharoitida o'sish va rivojlanishida havo harorati va tuproq yuza qismining harorati musbat korrelyatsiyasi aniqlanib, asosiy musbat korrelyatsiyasi havo harorati yetakchilik qilib, havoning nisbiy namligi manfiy korrelyatsiyada ekanligi aniqlandi.

O'simlikning o'sishi va rivojlanishida ekish muddatlari va tashqi muhit omillarining korrelyatsiyasiga ko'ra, Buxoro shahri sharoiti uchun havo harorati va tuproq yuza qismining harorati musbat korrelyatsiyaga ega bo'lib, havoning nisbiy namligi esa manfiy korrelyatsiyada kechadi. Mazkur holat introduksiya qilingan hududning tuproq-iqlim



2-TOM, 1-SON

sharoiti va o'simliklarning ushbu hududga moslashish ko'rsatkichlari bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Козак М.Ф., Турдугулова Р.Т. Кариологическая характеристика лофанта анисового (*Lofanthus anisatus* Boenth.). Естественные науки. Генетика. –№ 2 (43). 2013. – С. 86-97.
2. Dusmyratova F.M., Rakhimova T., Fakhriddinova D.K., Uralov A.I. Seed forgireness of some species of the family Lamiaceae introduced in Tashkent botanical garden // European Journal of Molecular clinical Medicine. Vol. 7, issue 11, 2020. – P. 344-352.
3. Khalimova Sh.E., Rakhimova T. The initial stages of the Ontogenesis of some Medicinal Plants in the Conditions of Bukhara (Uzbekistan) // American Journal of Plant Sciences. 12. 2021.
4. Khalimova Sh.E., Rakhimova T. Biomorphological features of some medicinal plants under the conditions of Bukhara (Uzbekistan) // Journal of pharmaceutical negative Results. Vol. 13. 2022.
5. Esanov H.Q. Buxoro vohasi florasi tahlili // Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PHD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2017.



SERTIFIKAT

Halimova Shohina Eminjon qizi

**MAVZU: "AGASTACHE FOENICULUM (PURSH) KUNTZE" DORIVOR
O'SIMLIGINING INTRODUKSIYA SHAROITIDA BIOEKOLOGIK
XUSUSIYATI**

**"XXI ASRDA INNOVATION TEXNOLOGIYALAR, FAN VA TA'LIM
TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB MUAMMOLAR" nomli**

**konferensiyaning 1- sonida nashr etildi. Ushbu maqola tahrir
hay'atidan o'tkazilib, ijobiiy baholandi va jurnalga nashr etish uchun
tavsiya etildi.**

09.01.2024

SANA



BOSH MUHARRIR

Eshkaraev S.CH





nomli maqola "XXI asrda innovatsion texnologiyalar, fan va ta'lim taraqqiyotidagi dolzarb muammolar" nomli konferensiyasi tahrir hay'atidan o'tganligi bo'yicha

QABUL XATI

Maqola qabul qilingan sana: 09.01.2024

Maqola mualliflari: Halimova Shohina Eminjon qizi



BOSH MUHARRIR:
ESHKARAEV.S.CH





Google
Scholar

zenodo



OpenAIRE

Research Science and
Innovation House

“XXI ASRDA INNOVATION TEXNOLOGIYALAR, FAN
VA TA'LIM TARAQQIYOTIDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR” konferensiyasida

Halimova Shohina Eminjon qizi

“AGASTACHE FOENICULUM (PURSH) KUNTZE” DORIVOR
O'SIMLIGINING INTRODUKSIYA SHAROITIDA BIOEKOLOGIK
XUSUSIYATI mavzusi uchun

DIPLOM

bilan taqdirlanadi



BOSH MUHARRIR:
ESHKARAEV.S.CH

